

UO'K(UDC, УДК): 81.25

TARJIMADA EKVIVALENTLIK YONDASHUVLARINING KONSEPTUAL TAHLILI²¹

Fatxutdinova Iroda Atxamovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

tayanch doktoranti,

Toshkent, O'zbekiston

Email: Irodaislomzoda7@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-6869-3702>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola zamonaviy tarjimashunoslikda eng muhim nazariy yo'nalishlardan biri — ekvivalentlik tamoyilining konseptual asoslarini har tomonlama tahlil etishga bag'ishlangan. Tadqiqotning maqsadi tarjimada ekvivalentlikni ta'minlashga doir mavjud nazariy yondashuvlarni qiyosiy o'rganish, ularning lingvistik, pragmatik va madaniy asoslarini aniqlash hamda tarjima jarayonida to'liq ekvivalentlikka erishish muammolarini ilmiy nuqtai nazardan yoritishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi qiyosiy-tipologik, lingvistik, semiotik, pragmatik va funksional tahlil usullariga tayanadi. Maqolada ekvivalentlik tamoyili tarjimon kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismi sifatida baholanadi. Tarjima jarayonida ekvivalentlik dinamik hodisa sifatida talqin qilinib, u tarjimonning madaniy bilim darajasi, stilistik sezgirligi va kontekstni to'g'ri talqin qila olish qobiliyatiga bog'liqligi ta'kidlanadi.

Tadqiqot xulosalariga ko'ra, tarjimada ekvivalentlik statik muvofiqlik emas, balki madaniy, semantik va kommunikativ uyg'unlikka yo'naltirilgan dinamik jarayondir. Ekvivalentlikka erishish tarjimonning til sezgirligi, madaniy kompetensiyasi va ijodiy tafakkurini uyg'un qo'llash orqali amalga oshadi. Shuningdek, ekvivalentlik konsepsiyasi tarjima sifatini belgilovchi mezon sifatida, madaniyatlararo muloqotni kuchaytiruvchi, semantik aniqlik va funksional moslikni ta'minlovchi asosiy ilmiy-nazariy tamoyil sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot natijalari ekvivalentlik nazariyasini zamonaviy tarjimashunoslikda konseptual jihatdan yangilash, tarjimon tayyorlash jarayonida lingvistik va madaniy kompetensiyalarni uyg'un rivojlantirish zarurligini ilmiy asosda ko'rsatib beradi.

KALIT SO'ZLAR

Tarjima ekvivalentligi, lingvistik moslashuv, madaniy uyg'unlik, semiotik tahlil, pragmatik strategiyalar, stilistik transformatsiya, madaniyatlararo-muloqot, funksional ekvivalentlik, zamonaviy tarjimashunoslik, tarjimon kompetensiyasi.

Received: September 15, 2025

Accepted: September 20, 2025

Available online:
November 16, 2025

²¹ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Fatxutdinova I. Tarjimada ekvivalentlik yondashuvlarining konseptual tahlili. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 4(8) — B. 284-295.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЭКВИВАЛЕНТНОГО ПОДХОДА В ПЕРЕВОДОВЕДЕНИИ

Фатхутдинова Ирода Атхамовна

докторант,

Ташкентский государственный

университет востоковедения,

Ташкент, Узбекистан

Email: Irodaislomzoda7@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-6869-3702>

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
Данная статья посвящена всестороннему анализу концептуальных основ принципа эквивалентности - одного из важнейших теоретических направлений современного переводоведения. Цель исследования заключается в сравнительном изучении существующих теоретических подходов к обеспечению эквивалентности в переводе, определении ее лингвистических, прагматических и культурных основ, а также научном освещении проблем достижения полной эквивалентности в процессе перевода. Методология исследования базируется на методах сравнительно-типологического, лингвистического, семиотического, прагматического и функционального анализа. В статье принцип эквивалентности рассматривается как ключевой компонент компетенции переводчика. В процессе перевода эквивалентность интерпретируется как динамическое явление, при этом подчеркивается ее зависимость от уровня культурных знаний переводчика, его стилистической чуткости и способности правильно интерпретировать контекст. Согласно выводам исследования, эквивалентность в переводе представляет собой не статическое соответствие, а динамический процесс, направленный на достижение культурной, семантической и коммуникативной гармонии. Достижение эквивалентности осуществляется путем гармоничного сочетания языковой интуиции, культурной компетенции и творческого мышления переводчика. Кроме того, концепция эквивалентности интерпретируется как критерий, определяющий качество перевода, и как основной научно-теоретический принцип, улучшающий межкультурную коммуникацию, обеспечивающий семантическую точность и функциональное соответствие. Результаты исследования на научной основе демонстрируют необходимость концептуального обновления теории эквивалентности в современном переводоведении и гармоничного развития лингвистических и культурных компетенций в процессе подготовки переводчиков.	Эквивалентность в переводе, лингвистическая адаптация, культурная гармония, семиотический анализ, прагматические стратегии, стилистическая трансформация, межкультурная коммуникация, функциональная эквивалентность, современное переводоведение, переводческая компетентность.

CONCEPTUAL ANALYSIS OF EQUIVALENCE APPROACHES IN TRANSLATION

Fatkhutdinova Iroda Atxamovna

*PhD student (PhD candidate) of
Tashkent State University of Oriental Studies,
Tashkent, Uzbekistan*

*Email: Irodaislomzoda7@gmail.com
<https://orcid.org/0000-0001-6869-3702>*

ABSTRACT

This article is dedicated to a comprehensive analysis of the conceptual foundations of one of the most significant theoretical directions in modern translation studies - the principle of equivalence. The aim of the research is to conduct a comparative study of existing theoretical approaches to ensuring equivalence in translation, identify their linguistic, pragmatic, and cultural foundations, and elucidate the challenges of achieving full equivalence in the translation process from a scientific perspective.

The research methodology employs comparative-typological, linguistic, semiotic, pragmatic, and functional analysis methods. In the article, the principle of equivalence is evaluated as a key component of the translator's competence. In the translation process, equivalence is interpreted as a dynamic phenomenon, which is contingent on the translator's level of cultural knowledge, stylistic sensitivity, and ability to correctly interpret the context.

According to the research findings, equivalence in translation is not a static correspondence, but a dynamic process aimed at cultural, semantic, and communicative harmony. Achieving equivalence occurs through the harmonious application of the translator's linguistic sensitivity, cultural competence, and creative thinking. Furthermore, the concept of equivalence is interpreted as a criterion determining the quality of translation, as well as the primary scientific and theoretical principle that enhances intercultural communication and ensures semantic accuracy and functional compatibility. The research results scientifically demonstrate the necessity for a conceptual renewal of the theory of equivalence in modern translation studies and the harmonious development of linguistic and cultural competencies in the process of translator training.

KEY WORDS

Translation
equivalence, linguistic
adaptation, cultural
congruence, semiotic
analysis, pragmatic
strategies, stylistic
transformation,
intercultural
communication,
functional
equivalence, modern
translation studies,
translator competence.

KIRISH

Zamonaviy tarjimashunoslikda ekvivalentlik tamoyili tarjima jarayonining nazariy mezon bo'lib, u til darajasidagi muvofiqlikdan tashqari kontekstual sezgirlik va madaniy tafakkurni o'z ichiga oladi. Tarjima bu ikki til o'rtasidagi semantik muvofiqlikni ta'minlashdan ko'ra, ikki madaniyat orasida muloqot muvozanatini yaratish san'atidir (Fatxutdinova I., 2025, 13). Shu bois, tarjimon faqat til vositachisi emas, balki madaniy tafovutlarni uyg'unlashtiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Ekvivalentlikni faqat lingvistik darajada izlash nazariy tor doirada cheklab qo'yadi, aksincha, uni kontekstga moslashtirilgan, dinamik va funksional hodisa sifatida talqin qilish zamonaviy tarjima amaliyotining metodologik ahamiyatini ochib beradi. Tarjima insoniyat tillari va madaniyatlari rang-barangligini birlashtirgan holda, xalqlar o'rtasidagi muloqotni chuqurlashtiruvchi, madaniy merosni asrovchi, ma'naviy qadriyatlarni yangi auditoriyalarga yetkazuvchi muhim vosita sifatida e'tirof etadi. Bu jarayonda ekvivalentlik tamoyili manba matnning mazmuni, uslubiy ohangi va kommunikativ maqsadlarini saqlab qolishga xizmat qilib, tarjima qilingan matnning semantik aniqligi va funksional mosligini ta'minlaydi. (Fatxutdinova I., 2024, 12).

Tarjima nazariyasiga oid fundamental manbalar asosida Bhisham Sahnining "Basantiy" romani va "Jharokhe" ("Darichalar" A.Ibrohimov tarjimasi, 1983, 2) qissasi hindiy tilidan o'zbek tiliga nasriy matnlarni tarjima qilish jarayonida ekvivalentlik darajalari o'rganildi. Misollar lingvistik va madaniy kontekstda tahlil qilinib, ekvivalentlik tamoyilining amaliy qo'llanilishini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi.

Tarjima nazariyasida ekvivalentlik tushunchasi ko'plab olimlar tomonidan turlicha talqin etilgan. Mazkur maqolada J. Ketford ekvivalentlikni lingvistik darajada ya'ni grammatik va leksik moslik orqali ta'minlashga urg'u beradi (Catford, J.C., 1965, 5), Yu. Nayda va S. Taberlar esa dinamik hamda formal ekvivalentlik nazariyasi orqali tarjimada semantik va emotsional uyg'unlikni muhim deb hisoblaydilar (Nida E., Taber C.R., 1982, 9). Bundan tashqari **W. Koller, R. Yakobson**, J.P.Vinay va J.Darbelnet ekvivalentlikni madaniy moslashuv vositasi

sifatida (Ali Reza G., 2011, 3), M.Snell-Hornby esa madaniyatga asoslangan yondashuvni ilgari surib, ekvivalentlikni universal nazariy tushuncha sifatida rad etganligi (Snell-Hornby M., 1988, 8), M.Bakerning esa lingvistik va pragmatik yondashuvlarni uyg'unlashtirib, ekvivalentlikni so'z darajasidan tortib, yuqori darajadagi matn birliklari kontekstida har tomonlama tahlil qilingan (Baker M., 1992, 4). Yuqorida keltirilgan nazariy yondashuvlar misollar asosida o'rganildi. Bu yondashuvlar tarjima jarayonida ekvivalentlikni ta'minlashning nazariy va amaliy asoslarini chuqurroq anglashga imkon yaratadi.

Shuningdek, ekvivalentlikning amaliy qo'llanilishi tarjima sifatini oshirish, muloqotning funksional samaradorligini ta'minlash va madaniyatlararo anglashuvni chuqurlashtirishda muhim metodologik vosita sifatida baholanadi. Bu tamoyil tarjimonning til sezgirligi, madaniy bilim darajasi va kommunikativ yondashuvlarini birlashtirish orqali manba matnning mazmuni hamda uslubini maqsadli auditoriyaga aniq va tabiiy shaklda yetkazishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

1. **R.Yakobson** tomonidan tarjima nazariyasiga kiritilgan ekvivalentlik tamoyili "*farqdagi ekvivalentlik*" tushunchasini o'z ichiga oladi. U tarjimani uch turga ajratgan: 1) *Intralingual tarjima*- bir til ichidagi lingvistik darajadagi o'zgarishlar (masalan, parafraz qilish). 2) *Interlingual tarjima*- tillararo tarjima. 3) *Intersemiotik tarjima*- belgi tizimlari o'rtasidagi tarjima (Leonardi V., 2000, 10). Yakobsonning semiotik yondashuvi tarjimada madaniy tafovutlarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Masalan, o'zbek tilidagi "*pishloq*" atamasi hindiy tilida "पनीर" (panir) shaklida ifodalanadi. Hind madaniyatida "*panir*" tvorogga yaqin bo'lgan pishloq turini anglatadi, ba'zi kontekstlarda esa bu "*brinza*" mahsulotiga ham muqobil bo'lishi mumkin. Bu mahsulot hind madaniyatiga xos bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lib, ingliz tilida ba'zida "*cheese*" deb tarjima qilinadi. Biroq ingliz tilidagi "*cheese*" asosan sutdan tayyorlanadigan, yoki kimyoviy xususiyatlarga ega bo'lgan yana boshqa pishloq turlarini ham bildirishi mumkin.

Ushbu semantik tafovutlar tarjimonning madaniy kontekstni chuqur anglab, maqsadli auditoriyaga mos ekvivalent variantni tanlash zarurligini ko'rsatadi.

Semiotik yondashuvni amaliy tarjima jarayonida qo'llash murakkab bo'lishi mumkin, chunki har bir madaniy belgi, konnotatsiya va kontekstual ma'no qatlamini to'liq anglash va moslashtirish ko'p vaqt, lingvistik kompetensiya hamda madaniy bilim talab qiladi. Shunga ko'ra, tarjimon nafaqat til darajasida, balki madaniyatlararo yondashuv darajasida ham muvozanatni saqlashi lozim bo'ladi.

2. Ketford tarjima ekvivalentligini lingvistik nuqtai nazardan o'rganadi va tarjimaning turli darajalarini aniqlaydi: 1) *To'liq va qisman tarjima*. 2) *Darajali va cheklangan tarjima*. 3) *Grammatik* 4) *leksik moslashuvlar*. Ketford rasmiy yozishmalar va matn ekvivalentligi o'rtasidagi farqlarni ajratib ko'rsatadi hamda grammatik va leksik moslikni ta'minlashga alohida urg'u beradi (Catford J.C., 1965, 5).

Biroq, uning lingvistik yondashuvi ayrim tillar, jumladan o'zbek tilida jinsga xos grammatik kategoriyalarning mavjud emasligi sababli ba'zi farqlarni hisobga olishda cheklangan bo'lib qoladi. Madaniy komponentlar esa faqat lingvistik darajada, ya'ni yuzaki tarzda aks etadi. Shu sababli, Ketfordning modeli tarjima jarayonida madaniy va situatsion kontekstlarning ta'sirini yetarli darajada qamrab olmaydi. Ushbu yondashuv texnik va rasmiy matnlarni tarjima qilishda samarali bo'lsa-da, madaniyatlararo tafovutlarni chuqur tahlil qilishni talab etadigan badiiy yoki *konnotativ matnlar* ya'ni *badiiy va emotsional ifodali matnlar* uchun qisman chegaralangan deb baholanishi mumkin. Shunday qilib, Ketford modeli lingvistik ekvivalentlikni ta'minlashda nazariy asos bo'lsa-da, tarjimaning madaniy va kommunikativ jihatlarini to'liq qamrab olish uchun qo'shimcha yondashuvlar bilan integratsiyalash (*leksik, grammatik, stilistik elementlarni birgalikda tahlil qilish va tarjimada uyg'un qo'llash*) zarurligini unutmaslik lozim.

3. Jean-Paul Vinay va Jean Darbelnet tarjima strategiyasini ikki asosiy turga ajratadi: *bevosita va bilvosita tarjima*. Bevosita (to'g'ridan to'g'ri) tarjima lingvistik jihatdan so'zma-so'z moslikni ta'minlaydi va madaniy yoki tilshunoslikka oid muammolar mavjud bo'lmagan holatlarda qo'llaniladi. Bilvosita tarjima esa til

va madaniyat o'rtasidagi tafovutlarni hisobga olib, kontekstga moslashtirishni talab etadi.

Bilvosita tarjima strategiyasi quyidagi usullarni o'z ichiga oladi:

1. *transpozitsiya* - grammatik strukturalarni o'zgartirish;
2. *modulyatsiya* - semantik nuqtayi nazarni o'zgartirish;
3. *ekvivalentlik* - vaziyatni boshqa til vositalari bilan takrorlash;
4. *moslashtirish* - madaniy kontekstga mos alternativani tanlash.

Vinay va Darbelnet ekvivalentlikni “*asl vaziyatni boshqa til vositalari orqali takrorlash*” deb ta’riflaydi (Vinay J. P., Darbelnet J., 1995, 11) Ularning bilvosita tarjima strategiyasi madaniy va lingvistik tafovutlarni hisobga olgan holda kontekstga moslashtirishga qaratilgan bo‘lib, ayniqsa konnotativ ma’noga ega bo‘lgan birliklarni - maqollar, idiomalar, sifatlovchi iboralar, onomatopeyik ifodalar - tarjima qilishda samarali vosita hisoblanadi. Masalan, hindiy tilidagi “एक म्यान में दो तलवार नहीं रहती!” (Bhisham S., 1983, 14) iborasi bevosita tarjimada “*Bir qinga ikki qilich sig‘maydi*” shaklida beriladi, biroq bu ifoda o‘zbek tilida semantik va emotsional jihatdan yetarli darajada tushunarli emas. Bilvosita tarjima esa “*Bir qozonda ikki qo‘chqorning kallasi qaynamaydi*” (Fayzullo A., 2010, 1) kabi ekvivalent ibora orqali madaniy kontekstni hisobga olib, maqsadli auditoriyaga tabiiyroq va ta’sirchanroq ma’no yetkazadi. Bu yondashuv tarjima jarayonida nafaqat lingvistik moslikni, balki madaniy sezgirlik va kommunikativ moslashuvni ham ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ayniqsa madaniyatlararo muloqotda yuqori samaradorlikka ega.

4. Yu.Nayda va S.Taber tarjima nazariyasida ekvivalentlikni ikki asosiy turga ajratgan: *formal ekvivalentlik va dinamik ekvivalentlik* (Nida E.A., Taber C.R., 1982, 9). Ushbu tasnif orqali ular tarjimada manba matnning shakliyl tuzilmasini saqlash bilan mazmunni tabiiy va tushunarli tarzda yetkazish o‘rtasidagi farqni aniqlab bergan. *Formal ekvivalentlik* manba tilining grammatik va leksik strukturasiga yaqin bo‘lishni ta’minlasa, *dinamik ekvivalentlik* o‘quvchining madaniy konteksti va idrokiga mos, semantik jihatdan tushunarli va emotsional

jihatdan ta'sirchan variantni tanlashga qaratilgan. Masalan: “भगवान मेरा मार्गदर्शक है।” iborasi formal tarjimada “*Xudo mening yo'l ko'rsatuvchidir*” shaklida beriladi, bu esa manba matnning grammatik tuzilmasiga yaqin. Dinamik tarjimada esa “*Xudo menga yo'l ko'rsatadi*” shaklida ifodalanib, o'quvchi uchun tabiiyroq va kontekstga mosroq semantik mazmunni taqdim etadi. Nayda va Taber fikricha, tarjimada nafaqat semantik mazmun, balki asliyat matnining hissiy ta'siri ham saqlanishi lozim. Ayniqsa, badiiy matnlarni tarjima qilishda dinamik ekvivalentlik yondashuvi o'quvchining madaniy kontekstini hisobga olgan holda moslashtirish imkonini yaratadi. Bu esa tarjimaning kommunikativ samaradorligini oshiradi va maqsadli auditoriyada asliyat asariga yaqin estetik va emotsional taassurot uyg'otadi. Shu bois, dinamik ekvivalentlik yondashuvi badiiy tarjimalarda muhim metodologik vosita sifatida e'tirof etiladi. U tarjimonning lingvistik sezgirliги va madaniy kompetensiyasini uyg'unlashtirish orqali manba matnning mazmuniy va stilistik xususiyatlarini samarali tarzda yetkazishga xizmat qiladi.

5. Koller W., tarjima nazariyasida ekvivalentlikni ko'p qirrali lingvistik va kommunikativ hodisa sifatida talqin qilib, uni turli nazariy nuqtayi nazardan o'rganishni taklif etadi. U ekvivalentlikni besh asosiy turga ajratadi: *denotativ, konnotativ, tekstual, pragmatik va formal ekvivalentlik* (Koller W., 1979, 7). Ushbu tasnif tarjima jarayonida matnning semantik mazmuni, stilistik xususiyatlari, kontekstual muvofiqligi va kommunikativ maqsadlarini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini yaratadi. Masalan, hindiy tilidagi “सर्दियों में बर्फ पड़ती है” (*sardiyōṇ mē barf pāṛtī hē*) iborasi o'zbek tiliga “*Qishda qor yog'adi*” deb tarjima qilinganida denotativ ekvivalentlik kuzatiladi, ya'ni har ikki tilda asosiy ma'no - qor yog'ishi - bir xil. Biroq, “सर्दी” (“sardi”) hindiy tilida sovuq ob-havoni bildirsa, o'zbek tilida esa bu qish faslini anglatadi. Kollerning yondashuvi tarjimonni matnning turli qatlamlarini - *leksik ma'no, konnotatsiya, kontekstual muvofiqlik, kommunikativ maqsad va stilistik uyg'unlik* - birgalikda tahlil qilishga undaydi. Ayniqsa, madaniyatlararo tafovutlar mavjud bo'lgan holatlarda bu yondashuv tarjimonga mos ekvivalent variantni tanlashda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuv

tarjima jarayonida semantik aniqlik va kommunikativ samaradorlikni muvozanatli tarzda uyg'unlashtirishga yordam beradi hamda tarjimonning lingvistik sezgirligi va madaniy kompetensiyasini ishga soladi.

6. Mary Snell-Hornby universal ekvivalentlik tushunchasini rad etib, tarjimani faqat lingvistik darajadagi moslik bilan cheklashni maqsadga muvofiq deb hisoblamaydi. Aksincha, u tarjima jarayonida matnning *semantik mazmuni, stilistik ohangi, emotsional ta'siri va madaniy konteksti* birgalikda tahlil qilinishi zarurligini ta'kidlaydi (Snell-Hornby M., 1988, 8). Misol uchun: बसंती, तेरी आँखें तो हिरनी जैसी है पर हिरनी तो शरीफ होती है, तू तो शरारत का पुतला है। (भीष्म सा., १९८३, ५४) **So'zma-so'z:** *Basantiy, sening ko'zlaring ohunikidek, lekin ohu yuvosh, sen-chi sho'xlik timsolisan.*

Tarjimon: *Basantiy ko'zlaring xuddi ohuning ko'zlariga o'xshaydi-ya! Lekin, ohu juda yuvosh bo'ladi, sen bo'lsang qip-qizil shaytonsan* (Fayzullo A., 2010, 1).

Tahlil: “बसंती, तेरी आँखें तो हिरनी जैसी है...” kabi iboralarda hayvon obrazlari orqali ramziy yuvoshlik va sho'xlik ifodalangan bo'lib, bu konnotativ qatlamlar har bir madaniyatda turlicha talqin qilinadi. So'zma-so'z tarjima grammatik jihatdan mos bo'lsa-da, semantik va emotsional jihatdan yetarli ta'sir kuchiga ega emas. Tarjimon tomonidan tanlangan “*qip-qizil shaytonsan*” varianti esa o'zbek tilida stilistik jihatdan kuchliroq, madaniy jihatdan mosroq va o'quvchi uchun tabiiyroq qabul qilinadi. Bu yondashuv tarjimani madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida talqin qilishga asos bo'lib, tarjimonning stilistik sezgirligi va madaniy kompetensiyasini faol ishga solishni talab qiladi.

7. Mona Baker tarjimada ekvivalentlikni muhim texnik vosita sifatida talqin etib, uni so'z darajasidan tortib murakkab matn birliklari kontekstida tahlil qiladi. U grammatik moslikni ta'minlash bilan birga, maqsadli auditoriyaning til va madaniy kuzatishlarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Bakerning fikricha, grammatik kategoriyalardagi tafovutlar - masalan, *jins, raqam, zamon* - tarjima murakkabligini oshiradi va kontekstual tahlilni talab qiladi (Baker M., 1992, 4).

Masalan hindiy tilidagi “पावर सप्लाय” (*Power supply*) atamasi o‘zbek tilida “*quvvat manbai*” deb tarjima qilinganda semantik jihatdan muvofiqlik ta’minlanadi. Biroq “वह स्कूल गई।” (*Vō skul gāī*) kabi iboralarda jinsga xos grammatik shakllar mavjud bo‘lib, o‘zbek tilida jinsga xos kategoriyalar yo‘qligi sababli bu farqlar grammatik jihatdan ifodalanmaydi. Shu bois tarjimon kontekstga asoslanib, semantik va stilistik muvofiqlikni ta’minlaydi. Bakerning lingvistik va kommunikativ ekvivalentlikka oid bu yondashuvi tarjima jarayonidagi grammatik va kontekstual murakkabliklarni yoritadi hamda tarjimon uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv semantik aniqlik bilan birga funksional va madaniy moslikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, tarjimonning til sezgirligi va madaniy kompetensiyasini talab etadi deb hisoblaymiz.

XULOSA

Tarjimada ekvivalentlikka erishish jarayoni lingvistik muvofiqlik doirasidan ancha keng bo‘lib, u madaniy sezgirlik, kontekstual idrok va kommunikativ strategiyalarni o‘zaro uyg‘unlashtirgan fanlararo metodologik yondashuvni talab etadi. Bu yondashuv tarjima faoliyatini nafaqat til darajasida, balki madaniyatlararo muloqot kontekstida ham samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Nazariy modellarning konseptual tahlili shuni ko‘rsatadiki, ekvivalentlik - bu statik muvofiqlik emas, balki tarjimonning idroki, madaniy kompetensiyasi va stilistik sezgirligiga tayangan dinamik jarayondir. Ushbu jarayon konnotativ ma’nolarni, stilistik qatlamlarni va kontekstual nuanslarni hisobga olgan holda, asl matn va maqsadli til o‘rtasida semantik muvozanatni ta’minlashga qaratilgan.

Shu bois, zamonaviy tarjimashunoslikda ekvivalentlik tamoyili tarjima sifatini oshirish, madaniyatlararo muloqotni samarali ta’minlash, kommunikativ samaradorlikni kuchaytirishda markaziy hamda nazariy asos sifatida talqin etiladi. Bu tamoyil tarjimon faoliyatining nafaqat lingvistik transformatsiya, balki ma’no yaratish va madaniy vositachilik sifatida ko‘rish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ali Reza, G. *Equivalence in Translation. Translation Studies*. – Yerevan State University, 2011. – Vol. 7 No. 1 (8) – P. 116-120.
2. Амир Файзулла. Басантий романи. – Т: “Turon-Iqbol”, 2010.
3. Иброхимов, А. Даричалар. – Т.: Радуга, 1983. – 160 б.
4. Baker, M. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. – London: Routledge. - 1992. – 329 p.
5. Catford, J.C. *A Linguistic Theory of Translation: An Essay on Applied Linguistics*. – London: Oxford University Press, 1965. – 110 p.
6. Jakobson, R. *On Linguistic Aspects of Translation*. // *On Translation*. / Ed. by R.A. Brower. Cambridge. – MA: Harvard University Press, 1959.
7. Koller, W. *Einführung in die Übersetzungswissenschaft*. – Heidelberg: Quelle and Meyer, 1979. – 334 p.
8. Snell-Hornby M. *Translation Studies: An Integrated Approach*. – Amsterdam: Benjamins, 1988.
9. Nida E. and Taber C.R. *The Theory and Practice of Translation*. – Leiden: E. J. Brill, 1982. – 218 p.
10. Leonardi V. *Equivalence in Translation: Between Myth and Reality*. // *Translation Journal* Volume 4, No. 4. – 2000.
11. Vinay, J. P., Darbelnet, J. *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*. // *Translated and edited by Jean Sager, & Marie-Jo Hamel*. Amsterdam and Philadelphia: John Benjamins Publishing Company. – 1995.
12. Fatxutdinova, I. Zamonaviy tarjimashunoslikda ekvivalentlik masalasiga ilmiy-nazariy yondashuvlar. // *Tarjimashunoslar VIII forumi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*”. Uzbekistan: www.oriens.uz. 2024. – B.74-79.
13. Fatxutdinova, I. Tarjimada semantik ekvivalentlik darajasining ahamiyati. – *Sharqshunoslik. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy jurnali*. 2025. – B.105-115.
14. भीषम साहनी. बसंती. नवीन शाहदरा, नाइ दिल्ली. १९८३ – १८४ p

REFERENCES

1. Ali Reza, G. (2011). Equivalence in translation. *Translation Studies*, Yerevan State University, 7(1), 116-120.
2. Fayzulla, A. (2010). *Basantiy* [Basanti novel]. Tashkent: Turon-Iqbol.
3. Ibrokhimov, A. (1983). *Darichalar* [Windows]. Tashkent: Raduga.

4. Baker, M. (1992). *In other words: A coursebook on translation*. London: Routledge.
5. Catford, J. C. (1965). *A linguistic theory of translation: An essay on applied linguistics*. London: Oxford University Press.
6. Jakobson, R. (1959). On linguistic aspects of translation. In R. A. Brower (Ed.), *On translation* (pp. 232-239). Cambridge, MA: Harvard University Press.
7. Koller, W. (1979). *Einführung in die Übersetzungswissenschaft* [Introduction to translation studies]. Heidelberg: Quelle & Meyer.
8. Snell-Hornby, M. (1988). *Translation studies: An integrated approach*. Amsterdam: John Benjamins.
9. Nida, E. A., & Taber, C. R. (1982). *The theory and practice of translation*. Leiden: E. J. Brill.
10. Leonardi, V. (2000). Equivalence in translation: Between myth and reality. *Translation Journal*, 4(4).
11. Vinay, J. P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative stylistics of French and English: A methodology for translation* (J. Sager & M.-J. Hamel, Trans. & Eds.). Amsterdam & Philadelphia: John Benjamins.
12. Fatkhutdinova, I. (2024). Scientific-theoretical approaches to the issue of equivalence in modern translation studies. In VIII Forum of Translators. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 1(Special Issue), 74-79. Retrieved from <https://www.oriens.uz>
13. Fatkhutdinova, I. (2025). The significance of semantic equivalence levels in translation studies. *Scientific journal of the Tashkent state university of oriental studies*. ISSN 2181 – 8096. – P.105-115.
14. Sahni, B. (1983). [Basanti]. Naveen Shahdara, New Delhi.